



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

1991-yildan
chiqa boshlagan.

2015-yil. 6-son.

ISSN 2010-5584

tlvaadabiyot.uz | tl@sarkor.uz | www.tlvaadabiyot.uz | tl@sarkor.uz | www.tlvaadabiyot.uz | tl@sarkor.uz | www.tlvaadabiyot.uz | tl@sarkor.uz | www.tlvaadabiyot.uz | tl@sarkor.uz

USHBU SONDA

Dolzarb mavzu

Mukammal
darslik yaratish
ortidagi mashaqqatlar

9-bet

*Xorijiy mutaxassis
tajribasi*

Get involved in
your own CPD!
By Coralyn Bradshaw

28-bet

*Diqqat! Yangi rukn.
MAYOQ*

«Buningdek mushkul
ish yo'q hech jahonda»

44-bet

*Народы. Языки.
Культура*

«Мировое дерево»
в литературе и фольклоре
тюркских народов

стр. 61

*Используйте эти
материалы*

Личностно-ориентированное
обучение в развитии устной
связной речи студентов
иноязычных групп
педагогических вузов

стр. 73

“Yilning eng yaxshi ingliz tili o'qituvchisi” ko'rik-tanlovi
va “Ingliz tili bilimdonlari” intellektual musobaqasining
respublika bosqichi g'oliblari aniqlandi



B. Rizoqulov olgan suratlar

3-bet →



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2014-yil 19-dekabrda
0055-raqam bilan qayta
ro'yxatga olingan.

2015-yil. 6-son.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIG'NING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

www.tilvaadabiyot.uz | @sarkor.uz | www.tilvaadabiyot.uz | @sarkor.uz | www.tilvaadabiyot.uz | @sarkor.uz | www.tilvaadabiyot.uz | @sarkor.uz | www.tilvaadabiyot.uz | @sarkor.uz | www.tilvaadabiyot.uz | @sarkor.uz

Bosh muharrir:

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor DONIYOROV

Mamatqul JO'RAYEV

Shahnoza JO'RAYEVA

Islom ZOKIROV

Ulug'bek INOYATOV

Abduhamid MUXTOROV

(bosh muharrir o'rinbosari)

Nizomiddin MAHMUDOV

Nargiza RAHMONQULOVA

Hikmatilla RASHIDOV

Sirojiddin SAYYID

Ergash UMAROV

Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV

Ergesh ABDUVALITOV

Manzura DADAXO'JAYEVA

Lutfullo JO'RAYEV

Ehson TURDIQULOV

Valijon QODIROV

Sahifalovchilar:

Husan SAFARALIYEV

Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100129, Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Telefon: (8-371) 244-04-18,

244-04-15. e-mail: til@sarkor.uz

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jumaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va
adabiyot ta'limi» dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jumalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning
tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan
fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilin-
maydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 16.06.2015-yilda topshiril-
di. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi
60x84/16. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times»
garnitursi. 10, 11 kegl. «KOLORPAK» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Elbek ko'chasi, 8.
Buyurtma № 665 Adadi 11200 nusxa.

MUNDARIJA

YILNING ENG YAXSHI CHET TILI O'QITUVCHISI

Uldona Abdurahmonova. Dunyo bilan tillashib 3

«DAVLAT TILI HAQIDA» GI QONUN AMALDA

Komila Usmonova. O'quvchining og'zaki va yozma nutqi - ma'naviy yetuklik belgisi 7

DOLZARB MAVZU

Shodiyor To'rayev. Mukammal darslik yaratish ortidagi mashaqqatlar 9

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

D.Yo'ldoshova, G.Umarova. Olmosh so'z turkumi(mi)? 11

Shohidaxon Yusupova. Ona tili va botanika 13

Oydin Mo'minova. Shohmi yoki shox? 15

L.Po'latov, S.Odilov. Muammoli ta'lim nima? 16

Shahlo Karimova. Muqimiyning Zavqiyya ta'rif bergan g'azalini bilasizmi? 18

D.Hidovatova. O'zbek tili fanida rolli o'yin 20

PUNKTUATSIYA QOIDALARI

Bashorat Bahriddinova. O'zbek tilining punktuatsiya qoidalari 21

AKS SADO

Obid Xudoyorov. Allada sehr bor, beshikda qudrat 22

ADABIYOT QOIDALARI

Munisjon Hakimov. 6-mavzu: Adabiy turlar 23

LET'S LEARN ENGLISH

Lutfullo Jo'rayev. Keling, ingliz tilini o'rganamiz! 24

XORIJYI MUTAXASSIS TAJRIBASI

Get involved in your own CPD! By Coralyn Bradshaw 28

METODIK TAVSIYA

Feruza Jo'rayeva. Lesson plan 29

TAHLIL

Dildor Otajonova. Yozma nutq madaniyatida uslubiy bo'yqordilik 31

TADQIQOTLAR

D.Xudoyberganova, D.Andaniyazova. Pretsedent nomlar va ularni o'rganish muammolari 34

S.Mo'minov, T.Mo'minova. Hasbi hol va tanishtiruv 36

Nilufar Dilmurodova. Psixologik portret nima? 38

Abdurahim Nosirov. Umumbashariy proverbial frazeologizmlar 40

F.Tillaxujayeva, N.Boisjonova. Chet tili darslarida pedagogik o'yinlar 42

Diqqat! Yangi rukn: MAYOQ

Ergash Umarov. "Buningdek mushkul ish yo'q hech jahonda" 44

AMALIY MASHG'ULOT

Sh.Bobojonov, A.Norov. Kompyuter linvestikasi: muammo va vazifa nimada? 46

QO'SHIMCHA MATERIAL

Marhabo Abdullayeva. Allalarda xalq orzusi mujassam 47

Yorqinjon Odilov. Yangi asr o'zlashma so'zlari 48

AKTUALNOE SLOVO DNYA

N.A.Uzakov, N.P.Choriev. Aktualnye problemy informatsionno-ideologicheskoy 49

konkuratsii po formirovaniyu kriticheskogo mirovozreniya u molodezhi

METODIKA. OPIYT 51

N.A.Nasyrova. Vse professii horoshi 51

N.G.Saidova. Izucheniye liriki N.Gumileva 52

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

M.M.Obloqulova. Sintaksimniy analiz причастия II 54

в структуре английских предложений. ЯЗЫКОЗНАНИЕ 54

E.A.Mal'nevskiy, N.G.Tsebuchava. Est' li razniца 57

meжду frazeologiyey i idiomatikoyn? 57

N.T.Muradova. Lingvistikicheskie osobennosti dialogov 59

pri obucheni i inostrannomu yazyku 59

НАРОДЫ. ЯЗЫКИ. КУЛЬТУРА

N.I.Jurakuznev. «Mirovoye derevo» v literature i folklore tюркских народов 61

N.P.Kadyrova. Izucheniye kultury angloyazychnykh stran 62

na zanyatiyax po angliyskomu yazyku 62

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

V.I.Zaburd'yeva. Kommunikativnaya tipologiya liricheskikh stixotvoreniy 65

Vladislava Xodasevich 65

ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

N.M.Maxmudova. Metod proektov kak effektivniy priyem razvitiya 69

tvorcheskikh sposobnostey u studentov v protsessе izucheniya ispan'skogo yazyka 69

G.B.Abdullayeva, M.U.Rahmanova. Ispol'zovaniye pedagogicheskikh texnologiy 70

при obucheni i yazyku spetsial'nosti 70

I.I.N.Rasulova, F.X.Safarova. Lichnostno-orientirovannoye obucheniye 73

v razvitiye ustnoy svyaznoy rechi studentov inoyazychnykh grupp pedagogicheskikh vuzov 73

СВЕТ НЕГАСТНУЩИХ ИМЕН 75

A.C.Lixodnevskiy. Chelovek dnuх эпох 75

ФИЛОЛОГИ УЗБЕКИСТАНА 77

Efim Shaevich Mirochik 77

Sergey Ivanovich Zinin 78

Soyuz teorii i praktiki 79

Prazdnik knigi 80

TIL VA ADABIYOT

ТА'LIMI

LANGUAGE AND LITERATURE

jurnali O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan tasdiqlangan ro'yxatga ko'ra Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar e'lon qilinishi lozim bo'lgan respublika ilmiy jurnaldir.

D.HIDOYATOVA,

Toshkent shahar Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi,
Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

O'ZBEK TILI FANIDA ROLLI O'YIN

Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar faol qo'llanilmoqda. Bu o'quvchilarning erkin, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmasi shakllantirilishida samarali vositadir.

Mazkur metodlar muayyan darajada didaktik imkoniyatga ega. Biroq ularning barchasi har qanday darsda birdek samara bermasligi tabiiy. Shu bois ta'lim turi, o'rganilayotgan fan va mavzu yo'nalishi, g'oyasi, ko'lami va boshqa jihatlarga ko'ra pedagogik usulni to'g'ri tanlay olish maqsadga muvofiq. O'zbek tili o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida quyidagi kommunikativ interfaol metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi:

- rolli o'yinlar;
- "Case study" muammo-li vaziyatlarni tahlil qilish;
- videokeys;
- "Globoalfavit";
- "Kutublar daraxti";
- "4 taraf";
- ishbilarmonlik o'yinlari;
- namoyish yoki himoya (taqdimot, prezintatsiya);
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamidagi (elektron multimedia darslik) interfaol metodlar.

Shu jumladan, rolli o'yinlar o'zbek tilini o'rganishda o'quvchilarda til ko'nikmalarini shakllantirish, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish, erkin muloqotga tayyorlash va, eng muhimi, o'quvchilarning lug'at boyligini o'stirish, qo'shimcha material sifatida berilgan badiiy asarlardan parchalarning g'oyalarini obrazli o'zlashtirish, shuningdek, o'zaro suhbat (dialog)larni tashkil etish maqsadida qo'llaniladi.

Rolli o'yinlardan foydalanishning muhim ahamiyati o'quvchilarda tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib, darsda faol qatnashishiga erishish, o'zaro ijodiy hamkorlik muhitini yaratishdan iborat.

6-sinf uchun mo'ljallangan "O'zbek tili" darsligida "Men sevgan ko'rsatuv" mavzusi bo'yicha malaka oshirish jarayonida tinglovchilar bilan rolli o'yin tashkil qilish mumkin. Bunda ular ushbu mavzu orqali turli rollarni (rejissor, boshlovchi, intervyu beruvchi, liboschi-dizayner,...) ijro etib, turli vaziyatlarni kuzatadilar, muammodan chiqish yo'llarini qidiradilar va vaziyat ishtirokchisiga aylanadilar. Jarayon yakunida tinglovchilar bilan ushbu rolli o'yinning vaziyatlari va uni tashkillashtirish yuzasidan tahlillar olib boriladi. Bu esa tinglovchilarning metoddan maqsadli va to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Rolli o'yinlar kutilgan samarani berishi uchun bir qator shartlarga rioya qilish maqsadga muvofiq. Jumladan, tinglovchilarga nazarda tutilayotgan rolli o'yin mashg'uloti mavzusi, mazmuni haqida ma'lumot

berish; shartlari bilan tanishtirishda ko'rsatmalarning qisqa, aniq va tushunarli bo'lishiga e'tibor qaratish; rollar taqsimlangach so'ng tayyorlanish uchun aniq vaqt (reglament)ni belgilash; kutilayotgan natijani aniqlashtirish; agar rolli o'yin bir nechta guruh ishtirokini talab etadigan bo'lsa, u holda har bir guruhning taqdimoti uchun oldindan vaqtni belgilab olish; o'yinga jalb qilinmagan tinglovchilarning kuzatuvchi yoki ekspert sifatida muayyan vazifalarni bajarishlari yuzasidan topshiriq berish; rolli o'yin ijro etilgandan so'ng, albatta, uni muhokama qilish; muhokama jarayonida tinglovchilarning e'tiborini u yoki bu ishtirokchining ijrochilik mahoratiga emas, balki guruhda qanday hodisa sodir bo'lganligiga, ya'ni namoyish etilgan hodisaning tahliliga qaratish lozim.

V.Rozin quyidagi shartlarga amal qilish rolli o'yinlarning muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlovchi omillardir, deb hisoblaydi:

1) jamoa a'zolari o'rtasida samimiy ishchanlik muhitini yaratish;

2) o'yin jarayonida qat'iy talablar qo'yishdan saqlanish;

3) o'qituvchi va o'quvchilarning erkin, bemaol, o'ziga ishongan holda xotirjam harakat qilishlariga erishish;

4) sinfda qulay sharoitning mavjud bo'lishi (shovqin darajasini nazorat qilish, o'quvchilarni chalg'ituvchi harakatlarni sodir etmaslik);

5) sinfda tartib va tinchlikni saqlash maqsadida o'quvchilarning o'yin faolligiga ta'sir qilmaslik.

O'yin muhokamasining to'g'ri tashkil etilishi uchun o'quvchilarning e'tiborini aniq holatlarga qaratish maqsadida bir nechta savollarni o'rta tashlash va tinglovchilarning ularga aniq, lo'nda va qisqa javob bera olishlarini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega.

G.K.Selevko o'yinlarning psixopedagogik jarayon sifatidagi didaktik imkoniyatlariga yuqori baho berib, quyidagi tarkibiy tuzilishga egaligini ko'rsatgan:

1) o'yin uchun olingan rollar yoki o'yin turi;

2) tanlangan rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yinli harakatlar;

3) muayyan predmetni o'yinning shartli moddiy vositasi sifatida tanlash;

4) o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi real munosabatlar mazmuni;

5) shartli ravishda yaratilgan sujet (o'yin sujeti).

Yuqoridagi fikrlar asosida xulosa qilsak, o'zbek tili fanini o'qitishda mustahkamlash darslarida o'tilgan mavzular asosida rolli o'yin tashkil etilsa, o'quvchi o'rganganlarini amaliyotda sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladi. Bu o'quvchining fanni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

